

O'QUVCHILARGA FOLKLOR JANRLARINI O'RGATISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Karimova Arujan

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
2-kurs student*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'quvchilarga folklor janrlarini o'rgatishda interfaol metodlarning o'rni va ahamiyati, ularning dars samaradorligini oshirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, xalq og'zaki ijodini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar turlari va ularni qo'llash bo'yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *folklor, xalq og'zaki ijodi, interfaol metod, ta'lim jarayoni, innovatsion texnologiyalar.*

Folklor – bu xalq og'zaki ijodi, ya'ni xalq tomonidan asrlar davomida yaratilgan va og'izdan-og'izga o'tib kelgan badiiy, tarixiy hamda madaniy asarlar majmuasidir. Xalq og'zaki ijodi ilmda folklor deb yuritiladi. Bu atamani 1846-yilda ingliz olimi Uilyam Toms taklif qilgan bo'lib, uning ma'nosi “xalq donoligi” degan tushunchadan iborat. Aslini olganda, folklor deganda, xalq tomonidan yaratilgan hamma san'at namunalari tushuniladi.¹⁰⁴ Aslini olganda, folklor deganda, xalq tomonidan yaratilgan hamma san'at namunalari tushuniladi. Shu sababli folklor - xalqning turmushi, urf-odati, e'tiqodi, dunyoqarashi va orzu-intilishlarini ifodalaydi. U millatning ma'naviy merosi, xalq tafakkurining mahsuli hisoblanadi.

Folklorning asosiy belgilariga:

- Og'zaki shaklda yaratilishi – yozuvsiz, og'izdan-og'izga o'tadi.
- Muallifsizligi – aniq yaratuvchisi bo'lmaydi, xalqniki hisoblanadi.
- Variantlilik – bir asarning bir nechta shakllari bo'lishi mumkin.
- Jamoaviylik – xalq ijodi sifatida ko'pchilik tomonidan sayqal topadi.
- Tarixiylik – xalq hayotining turli davrlarini aks ettiradi.

Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – o'quvchilarda milliy qadriyatlar, madaniyat va og'zaki ijod namunalari hurmat bilan qarash tuyg'usini shakllantirishdir. Bu jarayonda folklor janrlarini o'qitish alohida o'rin tutadi. Xalq og'zaki ijodi – millatning tarixi, ma'naviyati va badiiy tafakkurini aks ettiruvchi bebaho boylikdir.

¹⁰⁴ A.PRIMOV. O'ZBEK FOLKLORI (O'zbek xalq lirikasi va dramasi)
O'quv qo'llanma. Guliston, -2023. – 100 b.

Uni o‘rgatishda an’anaviy dars usullaridan tashqari, interfaol metodlardan foydalanish zarur. Folklor janrlarini o‘rgatishdan asosiy maqsad – o‘quvchilarga xalq og‘zaki ijodining turlari (ertak, maqol, topishmoq, doston, rivoyat, afsona va boshqalar) haqida tushuncha berish, ularning ma’naviy-estetik mazmunini anglatishdir. Shu orqali o‘quvchilarda milliy g‘urur, vatanparvarlik, insoniylik kabi fazilatlar shakllanadi. Interfaol metodlarning afzalliklari shundaki, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida faol muloqot asosida kechadigan o‘quvchini dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradigan metodlar hisoblanadi.


Interfaol metodlarning asosiy vazifalari va afzalliklari:

- Darsga bo‘lgan qiziqishni oshiradi;
- Mustaqil fikrlashni shakllantiradi;
- Guruhda ishlash madaniyatini rivojlantiradi;
- O‘quvchilarning nutq boyligini kengaytiradi;
- Xalq og‘zaki ijodiga nisbatan hurmat tuyg‘usini kuchaytiradi.

Shuningdek, interfaol metodlardan samarali foydalangan hlda dars shakllantirilsa, bunday darslarda o‘quvchi o‘qituvchining faqat tinglovchisi emas balki faol ishtirokchisiga aylanadi. Shu bois folklorini o‘qitishda o‘quvchi faolligini ta’minlovchi interfaol usullar muhim ahamiyat kasb etadi. Tajriba natijalariga ko‘ra, interfaol metodlardan foydalanilgan darslarda:

- O‘quvchilarning fanga qiziqishi ortadi;
- Og‘zaki nutq va tafakkur faol rivojlanadi;
- Folklor asarlarining ma’nosi chuqurroq o‘zlashtiriladi;
- Milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usi shakllanadi.

“Klaster” – “Ertak” yoki “Maqol” so‘zidan kelib chiqib, o‘quvchilar fikr xaritasini tuzadilar va har bir xaritada tushunchalar yuzasidan o‘quvchilar orasida debat tashlashtirililadi.



ERTAK

Qahramonlar	Turlari	Mavzusi	G‘oyasi	Ahamiyati
Hayvonlar	Sehrli	Ezgulik	Yaxshilik	Tarbiyaviy
Odamlar	Maishiy	Yomonlik	Mehnat	Estetik
Sehrli	Hayvonlar	Mehnat	Do‘stlik	Bilimiy

Navbatdagi interfaol metodlardan biri – bu «Blyum» taksonomiyasi - bu o‘quvchilarning fikrlash darajalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish tizimi hisoblanadi.

Blyum taksonomiyasi asosida ishlashning afzalliklari:

- O‘quvchilarning fikrlash darajasini aniqlash osonlashadi
- Har bir darsda maqsadni aniqlik bilan belgilash mumkin
- Interfaol metodlar bilan uyg‘unlashadi (masalan: debat, klaster, aqliy hujum)
- O‘quvchini ijodkor darajagacha olib chiqadi.

Blyum taksonomiyasida avvalo, o‘qituvchi «Alpomish» dostonidagi quyidagi satrlarni ifodali yoki yoddan aytib beradi.

Sening aytgan bu so‘zingga yurmaymiz,

Eldan ketishingga javob bermaymiz.

Aka-ukaning urushi bo‘lmaydi,

Bu janjalni ikkovingdan ham ko‘rmaymiz.

Achchig‘ing bilan bu so‘zlarni aytasan,

Boysari, sen shu so‘zingdan qaytasan,

70 Bu eldan ayrilib, qayga ketasan?

Qanday chiqib ketasan qavm-qardoshingdan,

Bu yomon so‘zingni olib tashlagin, boshingdan,

Buytib kechib ketma emikdoshingdan,

Ham atrofdagi qavmi-qarindoshingdan.

Termultib ketmagin xalqning barini,

Ham akang-emikdosh Boybo‘rini,

Qayga musofir qilib olib ketasan,

Alpomishning sevimli Barchin yorini?!

Shundan so‘ng, uni o‘quvchilarga o‘qitadi. O‘quvchilarning «Alpomish» dostonidan keltirilgan satrlarning mazmunini tushunganlik darajasini aniqlash maqsadida o‘qituvchi Blyum taksonomiyasi asosida quyidagi savollarni beradi.

Bilish	1. Dostonda kimga murojaat qilinmoqda? 2. Dostonda qaysi qahramonlarning ismi tilga olingan? 3. Dostonda qanday voqea haqida so‘z boradi?
Tushunish	1. Muallif “aka-ukaning urushi bo‘lmaydi” deganda nimani nazarda tutgan? 2. She’rda qaysi his-tuyg‘ular ifodalangan? 3. “Bu yomon so‘zingni olib tashlagin” misrasi orqali qanday pand berilgan?
Qo‘llash	1. Agar sen Boysari o‘rnida bo‘lsang, qanday yo‘l tutarding? 2. Bugungi kunda aka-uka, do‘stlar o‘rtasida kelishmovchilik bo‘lsa, uni qanday hal qilish mumkin? 3. She’r g‘oyasini hozirgi hayotdan misol bilan tushuntir.
Tahlil qilish	She’rda xalqning qanday qadriyatlari aks etgan? 2. Boysari va Boybo‘ri obrazlari orqali qanday ijtimoiy muammo ko‘rsatilgan? 3. She’rda birlik va totuvlik g‘oyasi qanday ifodalangan?
Baholash	1. Sizningcha, she’rda keltirilgan nasihatlar bugungi kunda ham dolzarbmi? 2. Boysarining harakati to‘g‘rimi? Nima uchun? 3. Siz bu she’rga qanday nom qo‘ygan bo‘lardingiz va nega?

Xulosa, xalq og‘zaki ijodini o‘rgatishda interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada jonlantiradi, ularni ijodiy fikrlashga va milliy

qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalaydi. Har bir folklor janrini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni maqsadga muvofiq tanlash, o‘quvchining yosh va qiziqish xususiyatlarini inobatga olish dars samaradorligini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yozib oluvchilar: Oxunjon Sobirov, Qosimxon Muhammedov Alpomish O‘zbek xalq dostoni Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Fan nashriyoti davlat korxonasi, 2018. – 362 bet.
2. T.Mirzayev, Sh.Turdimov va boshqalar O‘zbek folklori Toshkent, «MALIK PRINT CO», 2023. – 100 bet.
3. Mashhura Qodirova, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘zbek adabiyoti va uni o‘qitish metodikasi kafedrasida dotsenti v.b. (PhD) xalq og‘zaki ijodi janrlarini o‘qitish metodikasini takomillashtirishda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati.
4. A.Primov O‘ZBEK FOLKLORI (O‘zbek xalq lirikasi va dramasi) O‘quv qo‘llanma. Guliston, -2023. – 100